

PEDAGOGLARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH JARAYONINI PEDAGOGIK TIZIMLARI

Xudayberdiyeva Janona Rustamovna

TAFU “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasida katta o‘qituvchisi

Abdusalomova Sevara Dilshod qizi

SamDCHTI 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim tizimida pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish masalasi, uning mazmuni, ahamiyati va pedagogik tizimlar orqali samarali tashkil etish mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, O‘zbekiston ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar va xorijiy tajriba asosida ilg‘or yondashuvlar o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: uzluksiz kasbiy rivojlanish, pedagogik tizim, malaka oshirish, innovatsiya, raqamli ta’lim, metodik xizmat.

Аннотация. В статье анализируется проблема непрерывного профессионального развития педагогов в современной системе образования, его содержание, значение и механизмы эффективной организации посредством педагогических систем. Также будут изучены реформы, реализуемые в системе образования Узбекистана, и передовые подходы, основанные на зарубежном опыте.

Ключевые слова: непрерывное профессиональное развитие, педагогическая система, повышение квалификации, инновации, цифровое образование, методическая служба.

Abstract. This article analyzes the issue of continuous professional development of teachers in the modern education system, its content, importance and mechanisms for effective organization through pedagogical systems. It also studies the reforms being implemented in the education system of Uzbekistan and advanced approaches based on foreign experience.

Key words: continuous professional development, pedagogical system, advanced training, innovation, digital education, methodological service.

Kirish. Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti ta’lim tizimining raqobatbardoshligi va sifati bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu omil, avvalo, pedagog kadrlarning kasbiy salohiyati va ularning doimiy ravishda o‘z ustida ishlashiga asoslanadi.

Pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish tushunchasi. Uzluksiz kasbiy rivojlanish - bu pedagogning o‘z faoliyati davomida muntazam ravishda bilim va ko‘nikmalarini yangilab borishi, innovatsion pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirishi, ta’limda raqobatbardosh bo‘lishga intilishidir. Bu jarayon quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- malaka oshirish kurslari;
- amaliy seminar-treninglar;
- o‘z ustida mustaqil ishlash;
- ilmiy-metodik faoliyatda ishtirok etish.

Pedagogik tizimlar va ularning ahamiyati. Pedagogik tizim - bu ta’lim maqsadiga erishish uchun bir-biri bilan uzviy bog‘langan elementlar majmuasidir. Pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi quyidagi asosiy komponentlardan tashkil topgan:

Maqsadli komponent – pedagogning kasbiy rivojlanishga yo‘naltirilgan individual va institutsional ehtiyojlarini qamrab oladi.

Mazmuniy komponent – yangi bilimlar, metodlar, zamonaviy texnologiyalar mazmunini o‘z ichiga oladi.

Tashkiliy komponent – malaka oshirish institutlari, metodik markazlar, o‘quv dasturlari orqali tashkil etiladi.

Baholash komponenti – rivojlanish samaradorligini monitoring qilish, attestatsiya va refleksiya jarayonlari orqali amalga oshiriladi.

Pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish tushunchasi va uning ahamiyati. Uzluksiz kasbiy rivojlanish - bu pedagoglarning o‘z kasbiy malakasini doimiy ravishda oshirib borishi, zamonaviy bilim va texnologiyalarni egallashidir. Pedagogik tizim tushunchasi va u orqali kasbiy rivojlanishni tashkil etish.

Pedagogik tizim - bu pedagogik faoliyatni amalga oshirishda qatnashuvchi subyektlar, ularning faoliyati, mazmuni, vositalari va natijalari o‘zaro bog‘liq bo‘lgan yaxlit tizimdir.



O‘zbekiston ta’lim tizimida kasbiy rivojlanish tizimining rivojlanishi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda uzluksiz kasbiy rivojlanishni ta‘minlash bo‘yicha quyidagi ijobiy natijalar kuzatilmoqda. Xorijiy mamlakatlar tajribasi Finlyandiya tajribasida har bir o‘qituvchi uchun yillik kasbiy rivojlanish rejalashtiriladi.

Xulosa va takliflar. Pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish zamonaviy ta’limning ajralmas bo‘lagi hisoblanadi. Uni amalga oshirishda yaxlit pedagogik tizimning mavjudligi muhim rol o‘ynaydi. Shu bois, pedagogik tizimlar faoliyatini takomillashtirish, raqamli va innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali ta’lim sifati va raqobatbardoshligi oshiriladi. Pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi - bu ta’lim sifatini oshirish va pedagoglarning malakasini zamon talablariga moslashtirishning asosiy kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–232-son qarori, 2022-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – T.: Adolat, 2020.
3. Rasulov N. “Pedagog kadrlar malakasini oshirishda innovatsion yondashuvlar”, – Toshkent, 2022.
4. UNESCO (2023). Framework for Teacher Professional Development.
5. Axmedova D. “Pedagogik tizimlar nazariyasi”, – Toshkent, 2021.
6. www.bilim.uz – Pedagoglar uchun raqamli malaka oshirish portali.
7. Zira.uz – Onlayn ta’lim platformasi.